


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60420200–Davlat va jamiyat boshqaruvi
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining*

MALAKA TALABI



Toshkent-2024

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat yuridik universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” 06 dagi 218 sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....	5
3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	6
4. Fanlar katalogining tuzilishi.....	7
Bibliografik ma’lumotlar.....	8
Kelishuv varag‘i.....	9

1. Umumiy tavsifi

60420200 – Davlat va jamiyat boshqaruvi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Ushbu ta’lim yo’nalishi bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

Nazariy va amaliy ta’limni to’liq o’zlashtirgan, yetarli darajadagi kreditlarni to’plagan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o’tgan, o’quv rejasi talablarini bajargan shaxsga “bakalavr” darajasi to’g’risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat beriladi.

1.1. Qo’llanish sohasi:

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talablari *60420200 – Davlat va jamiyat boshqaruvi* ta’lim yo’nalishi bo’yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talabalari, o’quv reja va fanlar dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i (o’quv-uslubiy boshqarma boshlig’i), dekanlar, kafedra mudirlari va professor-o’qituvchilari;

bakalavriat ta’lim yo’nalishi o’quv reja va fan dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkiloti talabalari;

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalar va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.

60420200 – Davlat va jamiyat boshqaruvi – “Huquq” ta’lim sohasiga oid yo’nalish bo’lib, u boshqaruv kadrlarini tayyorlash yo’nalishi bo’lib, O’zbekiston Respublikasi davlat va ho’jalik boshqaruvi organlarida, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jamoatchilik tuzilmalari va boshqa tashkilotlarda rahbarlik va ijrochilik faoliyatini o’zida ifodalovchi davlat xizmati faoliyati, shuningdek O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida, notijorat tashkilotlarida boshqaruv faoliyati sohalarini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatning obyektlari:

davlat boshqaruvi organlari;

mahalliy davlat hokimiyati organlari;

fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari;

jamoatchilik tuzilmalari;

nodavlat-notijorat tashkilotlari;

xalqaro tashkilotlar va boshqalar.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalar:

60420200 – Davlat va jamiyat boshqaruvi ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy tadqiqot muassasasalari va markazlarda boshqaruv va innovatsion faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish hamda bajarish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

davlat boshqaruvi sohasidagi milliy va xorijiy yutuqlar, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik ma’lumotlarni o’rganish, tahlil qilish va tizimlashtirish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlarini qiyosiy tahlilni amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

tashkiliy-boshqaruv hamda axborot-tahliliy faoliyatida:

tashkilotning boshqaruv va ish yuritish tizimini tahlil qilish;

bo’linmalar (bo’limlar) funktsiya (vazifa)larini belgilash va ularning ishlarini muvofiqlashtirish;

mutaxassislar orasida vazifalar hamda ish hajmi taqsimotini tahlil qilish;

tashkilotda ilg’or boshqaruv usullarini qo’llash;

boshqaruv va nazorat tizimini tahlil qilish;

davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etuvchi sub’ektlar bilan o’zaro aloqalarni tashkil etish;

barcha turdagi hujjatlar mazmuni va hisobini yuritishni o’rganish;

davlat organlari va boshqa tuzilmalar zimmasiga yuklangan vazifalarni ijrosini ta’minlash maqsadida ishlarni samarali tashkil etish;

kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida qarorlar qabul qilish hamda ularning muqobillarini tanlab olish;

loyiha boshqaruvini amalga oshirish hamda qarorlar qabul qila olish;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan boshqaruv sohasida foydalana olish.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo’yiladigan talablar.

davlat va jamiyat boshqaruviga oid ilg’or xorijiy tajribasi, nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotining rivojlanish yo’nalishlari to’g’risida nazariy va amaliy bilimlarni, ko’nikma va malakalarni shakllantirish;

tanlangan mutaxassislik bo’yicha aqliy salohiyatni mustahkamlanishiga, rahbar kadrning doimiy ravishda o’z ustida ishlash, o’zini rivojlantirishiga bo’lgan tabiiy ehtiyojini shakllantirishga yordam berish;

davlat va jamiyat boshqaruvi faoliyati bilan bog’liq aniq mutaxassislik bo’yicha bilimlarni shakllantirish, jamlash va ulardan foydalanish ko’nikmalarini rivojlantirish;

davlat va jamiyat boshqaruviga oid qarorlarni qabul qilishda kasbiy salohiyat va kompetensiyasini rivojlanish;

strategik maqsadlarni shakllantira olishi va maxsus yo’naltirilgan masalalarni hal qila olishi, mutaxassislikning muammolari bo’yicha qarorlar qabul qila olishi, tayanch bilimlar yaratib, ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olishi;

davlat va jamiyat boshqaruvida tahlil usullarini qo’llashi va tadqiqot natijalarini qayta ishlashi, tegishli soha faoliyati bilan bog’liq natijalarini qo’llash bo’yicha takliflar ishlab chiqishi va taqdim etishi;

boshqaruvda ilg’or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy «elektron hukumat» tizimi, axborotni tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarni qabul qilishning samarali usullari, kasbiy vazifalarni avtomatlashtirish va modellashtirish bo’yicha ko’nikmalarga ega bo’lishi;

O’zbekiston davlatchilik tarixini va milliy qadriyatlarini chuqur bilishi va tushuntirib bera olishi.

3. Amaliyotlarga qo’yiladigan talablar:

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha malakaviy amaliyot o’tkaziladi.

Malakaviy amaliyot – ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4400	176	
1.01	TMK1105	Tadqiqot metodologiyasi va ko‘nikmalar	125	5	1
1.02	DIN1104	Dinshunoslik	100	4	1
1.03	XT1105	Xorijiy til	125	5	1
1.04	O‘ZT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	100	4	1
1.05	KH1210	Konstitutsiyaviy huquq	250	10	1,2
1.06	MM1210	Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot	250	10	1,2
1.07	DHN1105	Davlat va huquq nazariyasi	125	5	1
1.08	S1105	Sotsiologiya	100	4	1
1.09	AT1205	Axborot texnologiyalari	100	4	2
1.10	FALS1204	Falsafa	100	4	2
1.11	DTIY1205	Davlat tilida ish yuritish / Akademik yozuv	125	5	2
1.12	DBZM1205	Davlat boshqaruvida zamonaviy menejment	125	5	4
1.13	FJ1205	Fuqarolik jamiyati	125	5	3
1.14	MH1310	Ma’muriy huquq	250	10	3,4
1.15	BP1305	Boshqaruv psixologiyasi	125	5	3
1.16	EHDBR1305	Elektron hukumat va davlat boshqaru-vini raqamlashtirish	125	5	3
1.17	IH1405	Inson huquqlari	125	5	4
1.18	MH1410	Moliya huquqi	250	10	3,4
1.19	LB1405	Loyiha boshqaruvi	125	5	4
1.20	DBQQQ1506	Davlat boshqaruvida qarorlar qabul qi-lish	150	6	5
1.21	KB1506	Korporativ boshqaruv	150	6	5
1.22	PH1506	Parlament huquqi	150	6	5
1.23	MH1506	Mehnat huquqi	150	6	5
1.24	XB1606	Xodimlarni boshqarish	150	6	6
1.25	SDS1606	Siyosatshunoslik va davlat siyosati	150	6	6
1.26	KQKK1606	Korrupsiyaga qarshi kurash va kom-plaens	150	6	6
1.27	DFX1606	Davlat fuqarolik xizmati	150	6	6
1.28	TIFDB1706	Tashqi iqtisodiy faoliyatda davlat boshqaruvi	150	6	7
1.29	NNTH1706	Nodavlat notijorat tashkilotlar huquqi	150	6	7
1.30	XTH1706	Xalqaro tashkilotlar huquqi	150	6	7
2.00		Tanlov fanlar	700	28	3,4,5,6,7
Kvalifikatsiya		Davlat boshqaruvi			
		Jami	5100	204	
		Malakaviy amaliyot	900	36	8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	-	-	8
		Jami	900	36	
		HAMMASI	6000	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

davlat, davlat va jamiyat boshqaruvi, davlat hokimiyati, boshqaruv usullari, boshqaruv kadrlari, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, kasbiy faoliyat tavsifi, malaka talablari, kasbiy faoliyat sohalari, modul, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), klinik ta'lim, kredit, davlat va boshqaruvi ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, o'quv dasturi, o'qib o'rganish natijalari, boshqaruv tizimi, xalqaro tashkilotlar, muzokaralar, tahliliy ma'lumotlar, kasbiy kompetensiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:



Toshkent davlat yuridik universiteti

Rektor v.v.b. _____

I. Rustambekov

2024-yil “_____” _____

KELISHILDI:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta’limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor _____

M. Boltabayev

2024-yil “_____” _____

M.O. _____



O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi

Vazir

o‘rinbosari _____

Sh. Rabiye

2024-yil “_____” _____

M.O. _____

